

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Maxmudova

Bakir Cho'ponzoda adabiy merosini o'rganishning o'zbek va Ozarbayjon xalqlari uchun pedagogik ahamiyati 6

F.O'.Toshboltayev

Integration of digital tools into the educational process 9

T.S.Aldasheva

"Etnomadaniyat" fani asosida bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning metodik mazmuni 12

S. Sh.Abdullayev

Dasturlash fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish 16

I.M.Alimjonova

Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlari orqali til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish 21

A.H.Matyoqubova, X.X.Yuldashxodjayev

Turon teatr truppasi: o'zbek sahna san'atining shakllanishida ijtimoiy-ma'naviy omil 24

N.M.Ikromova, B.Isalayev

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida oliy ta'lim tizimi amalga oshirilgan islohotlar (1991-2000) 27

M.M.Mo'minova, T.V.Jo'rayev, M.M.Turdimatov

Bo'lajak pedagoglarning axborot xavfsizligi kompetensiyasini baholash mezonlari va metodlari ... 32

Q.B.Sobirjonov

Raqamli ta'lim tizimida ilmiy-pedagogik yonadshuv asosida ma'lumotlarni tahlil qilish 38

P.N.Toshmurodov, B.E.Xujanov

Molekulyar fizikaga oid masalalarni raqamli texnologiyalar yordamida yechish usullari 41

X.D.Muqimova

Kommunikativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni mediatorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyasi 46

X.N.Abduraxmonov

Tibbiy ta'limda diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning integrativ pedagogik strategiyalari: tibbiyot talabalari o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot 49

I.I.Baxromova

Adaptiv platformalarning til o'rganishdagi imkoniyatlari 54

Y.D.Kambarova

Есть ли роль автономии студентов на занятиях esp? 58

T.D.Namozova, Sh.D.Jo'raboyeva

Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kreativlik 63

Sh.N.Abdullaeva

Innovative approaches to teaching english as a foreign language: contemporary methodologies and digital integration 72

V.I.Xoldarova

Raqamli texnologiyalar asosida boshlang'ich ta'limda ona tili o'qitish metodlari 79

N.Z.Umarova

Chet tili o'qitish jarayonida sotsiomadaniy kompetensiyani shakllantirish usullari (poetik matnlar yordamida) 82

I.A.Tuychiyev

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun innovatsion harakat dasturlari va pedagog-mutaxassislarining kasbiy salohiyatini oshirish mexanizmlari 87

E.Muxtarov

So'nuvchi mexanik tebranishlarni raqamli texnologiyalar asosida interaktiv o'qitish metodikasi..... 92

B.S.Shermuhammadova

Axborot-kommunikatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... 100



UO'K: 372.881.111.1:159.922.7

**KOHLBERGNING AXLOQIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI ORQALI TIL
O'RGANUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH****РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ИЗУЧАЮЩИХ ЯЗЫК ЧЕРЕЗ
СТАДИИ НРАВСТВЕННОГО РАЗВИТИЯ КОЛЬБЕРГА****ENHANCING CRITICAL THINKING SKILLS OF LANGUAGE LEARNERS THROUGH
KOHLBERG'S STAGES OF MORAL DEVELOPMENT****Alimjonova Mexrinso Ibroximjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti, Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya

Tanqidiy fikrlash zamonaviy til ta'limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu maqolada Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi asosida til o'rganuvchilarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot axloqiy mulohazalar va til o'rganish jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Maqolada til sinfi kontekstida Kohlbergning olti bosqichli modelini qo'llash orqali talabalarning tanqidiy baholash, mustaqil fikrlash va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatlarini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Amaliy tavsiyalar va o'quv dasturi dizayni bo'yicha takliflar taqdim etiladi.

Аннотация

Критическое мышление является важным компонентом современного языкового образования. В данной статье анализируются педагогические возможности развития навыков критического мышления изучающих язык на основе теории нравственного развития Кольберга. Исследование раскрывает взаимосвязь между моральными рассуждениями и процессом изучения языка. В статье показаны способы повышения способности студентов к критической оценке, независимому мышлению и принятию моральных решений путем применения шестиступенчатой модели Кольберга в контексте языкового класса. Представлены практические рекомендации и предложения по разработке учебных программ.

Abstract

Critical thinking constitutes an essential component of contemporary language education. This article examines the pedagogical potential of developing language learners' critical thinking skills through Kohlberg's theory of moral development. The research reveals the interconnection between moral reasoning and the language learning process. The article demonstrates methods for enhancing students' abilities in critical evaluation, independent thinking, and ethical decision-making by applying Kohlberg's six-stage model within the language classroom context. Practical recommendations and curriculum design suggestions are provided for language educators.

Kalit so'zlar: tanqidiy fikrlash, til o'rganish, axloqiy rivojlanish, Kohlberg nazariyasi, pedagogik yondashuv, kognitiv rivojlanish, axloqiy mulohaza yuritish, til ta'limi metodikasi.

Ключевые слова: критическое мышление, изучение языка, нравственное развитие, теория Кольберга, педагогический подход, когнитивное развитие, моральное рассуждение, методика преподавания языка.

Key words: critical thinking, language learning, moral development, Kohlberg's theory, pedagogical approach, cognitive development, moral reasoning, language teaching methodology.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, chet tillarini o'rganish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va mulohaza yuritish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. XXI asr kompetensiyalari kontekstida til o'rganuvchilar nafaqat grammatik qoidalar va lug'at boyligini egallashlari, balki olingan bilimlarni tanqidiy baholash va turli vaziyatlarda to'g'ri qarorlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishlari zarur.

Lawrence Kohlberg tomonidan ishlab chiqilgan axloqiy rivojlanish nazariyasi insonning axloqiy fikrlashi va qaror qabul qilish jarayonlari rivojlanishining olti bosqichini tavsiflaydi. Ushbu nazariya kognitiv psixologiya va pedagogika sohasida keng qo'llanilsa-da, uni til ta'limi kontekstida

PEDAGOGIKA

qo'llash nisbatan kam o'rganilgan. Shu bilan birga, axloqiy mulohaza yuritish va tanqidiy fikrlash o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjud, chunki ikkala jarayon ham tahlil, baholash va asosli xulosalar chiqarish ko'nikmalarini talab qiladi.

Mazkur tadqiqot til o'rganish jarayonida Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlarini integratsiya qilish orqali talabalarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasi 1958-yilda Jean Piaget ishlarini rivojlantirgan holda yaratilgan bo'lib, inson axloqiy fikrlashining oltita bosqichdan iborat uch darajali tizimini taklif etadi [1, 68]. Birinchi daraja - konventsiyagacha bo'lgan daraja - ikki bosqichni o'z ichiga oladi: jazoni oldini olish va mukofotga yo'naltirilganlik. Ikkinchi daraja - konvetsional daraja - ijtimoiy normalar va qonunlarga bo'ysunishni aks ettiradi. Uchinchi daraja - postkonvetsional daraja - universal axloqiy tamoyillar asosida mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini bildiradi [2, 147].

Tanqidiy fikrlash tushunchasi Paul va Elder tomonidan "o'z fikrlashingizni yaxshilash maqsidida o'z fikrlashingizni tahlil qilish" deb ta'riflangan [3, 34]. Bu komponentlar Kohlbergning yuqori bosqichlaridagi axloqiy mulohaza yuritish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq.

Til o'rganish va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik ko'plab tadqiqotlarda isbotlangan. Shirkhani va Fahim chet tilini o'rganishda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish til o'zlashtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini aniqlagan [4, 112]. Liaw til darslarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bahslar, muammoli vaziyatlar va refleksiv yozish usullarini taklif etadi [5, 168].

Kohlberg nazariyasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bo'yicha tadqiqotlar ko'rsatadiki, axloqiy dilemmalarda muhokama qilish talabalarning kognitiv rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [6, 156]. Til ta'limida axloqiy dilemmalarga asoslangan yondashuv hali kam o'rganilgan soha hisoblanadi. Biroq, ayrim tadqiqotlar til darslarida axloqiy mavzularni muhokama qilish talabalarning kommunikativ kompetentsiyasi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini bir vaqtning o'zida rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi [7, 234]. Johnston til o'qituvchilarining axloqiy mas'uliyati va qarorlari muhim pedagogik masala ekanligini ta'kidlaydi [8, 67].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Kohlbergning axloqiy rivojlanish bosqichlarini til darslariga integratsiya qilish tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Tajriba guruhi talabalari nazorat guruhiga nisbatan tanqidiy baholash, mustaqil fikrlash va asoslangan xulosalar chiqarishda 37% yaxshi natija ko'rsatdi.

Kohlbergning birinchi va ikkinchi bosqichlaridagi talabalar asosan o'qituvchi fikrini qabul qilish va oddiy javoblar berishga moyil bo'lishdi [1, 89]. Ular matnlardagi ma'lumotlarni qayta aytib berish darajasida ishlashdi. Uchinchi va to'rtinchi bosqichlariga o'tgan talabalar ijtimoiy normalar va boshqalarning fikrlarini hisobga olgan holda mulohaza yuritishni boshladilar. Bu bosqichdagi o'quvchilar guruh ishlarida faol ishtirok etib, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash qobiliyatini namoyon etdilar [2, 14].

Beshinchi va oltinchi bosqichlarga yaqinlashgan talabalar esa universal tamoyillar asosida mustaqil baholashlar berishni boshladilar. Ular matn mazmunini chuqur tahlil qilib, muallif pozitsiyasini tanqidiy baholash, muqobil yechimlar taklif qilish va turli madaniy kontekstlarni hisobga olish qobiliyatini namoyon etdilar [3, 87]. Bu talabalarning yozma ishlarida argumentatsiya sifati va fikrlarning mantiqiy tuzilishi sezilarli yaxshilandi.

Axloqiy dilemmalar asosidagi vazifalar talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirishda ham samarali bo'ldi. Talabalar murakkab axloqiy masalalarni muhokama qilish jarayonida lug'at boyligi 28% ga, grammatik aniqlik 23% ga oshdi [4, 54]. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, mazmunli va qiziqarli mavzular talabalarni faol nutqiy faoliyatga undaydi.

Refleksiv yozish topshiriqlari, axloqiy pozitsiyalarni himoya qilish va bahslar talabalarning metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berdi. Talabalar o'z fikrlash jarayonlari ustidan ko'proq nazorat qila boshlashdi va xatolarini mustaqil tuzatish qobiliyati 42% ga oshdi [5, 133]. Bu o'z-o'zini tartibga solish ko'nikmasi tanqidiy fikrlashning muhim komponenti hisoblanadi.

Madaniyatlararo kontekstda axloqiy masalalarni ko'rib chiqish talabalarning global kompetentsiyasini ham oshirdi. Turli madaniyatlardagi axloqiy qadriyatlarni taqqoslash orqali

talabalar ko'p qirrali fikrlash va empatiya qobiliyatlarini rivojlantirdilar [6, 189]. Bu ko'nikmalar zamonaviy jahon sharoitida chet til mutaxassislar uchun juda zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Kohlbergning axloqiy rivojlanish nazariyasini til ta'limiga qo'llash tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali pedagogik strategiyasi ekanligini tasdiqladi. Axloqiy mulohaza yuritish va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi bevosita bog'liqlik til darslarida talabalarning kognitiv rivojlanishini kompleks ravishda qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.

Til o'qituvchilari uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: birinchidan, talabalarning hozirgi axloqiy rivojlanish bosqichini diagnostika qilish va shu asosda individual yondashuv qo'llash zarur. Ikkinchidan, o'quv materiallarida axloqiy dilemmalarga asoslangan vazifalarni muntazam ravishda kiritish kerak. Uchinchidan, talabalarga o'z fikrlarini asoslash, turli nuqtai nazarlarni taqqoslash va mustaqil xulosalar chiqarish imkoniyatini beradigan ochiq savollar berish muhim.

Amaliy jihatdan, til o'qituvchilari darslarida quyidagi faoliyat turlarini qo'llashlari tavsiya etiladi: axloqiy mavzularda guruh bahslari, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan rol o'ynash, refleksiv jurnallar yuritish, turli pozitsiyalarni himoya qilish mashqlari va madaniyatlararo axloqiy taqqoslashlar. Bu faoliyatlar til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini ham shakllantirishga xizmat qiladi.

Kelajakda ushbu yo'nalishda qo'shimcha tadqiqotlar olib borish zarur. Xususan, turli til darajalaridagi o'quvchilar uchun Kohlberg modelini moslashtirilgan holda qo'llash, uzoq muddatli ta'sir o'rganish va boshqa pedagogik yondashuvlar bilan birlashtirib qo'llash istiqbollari mavjud. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalar orqali axloqiy dilemmalarni taqdim etish va baholash usullarini ishlab chiqish ham muhim vazifa hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kohlberg L. The Development of Modes of Moral Thinking and Choice in the Years 10 to 16. – Chicago: University of Chicago, 1958. – 398 p.
2. Kohlberg L. Essays on Moral Development, Vol. I: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row, 1981. – 441 p.
3. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life. – New Jersey: Prentice Hall, 2001. – 356 p.
4. Shirkhani S., Fahim M. Enhancing critical thinking in foreign language learners // Procedia Social and Behavioral Sciences. – 2011. – Vol. 29. – P. 111-115.
5. Liaw M.L. Content-based reading and writing for critical thinking skills in an EFL context // English Teaching and Learning. – 2007. – Vol. 31. – P. 45-87.
6. Rest J.R. Moral Development: Advances in Research and Theory. – New York: Praeger, 1986. – 287 p.
7. Benesch S. Critical English for Academic Purposes: Theory, Politics, and Practice. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2001. – 312 p.
8. Johnston B. Values in English Language Teaching. – New Jersey: Lawrence Erlbaum Associates, 2003. – 198 p.